

О‘ZINI MUHIT ERKIGA TOPSHIRGAN SHOIR

Mardiyev Husniddin

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani

Maktabgacha va maktab ta‘lim vazirligiga qarashli

2-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cho‘lpon asarlaridagi falsafiy qarashlarni anglash va tushintirish bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirildi. Cho‘lpon asarlarining boshqa jadid adabiyotshunoslaridan farqli tomonlari, hurlik, erkinlik, ozodlik kabi tuyg‘ular haqida mulohazalar keltirildi. Boshqa jadid adabiyotshunoslarning ham asarlariga murojaat qilindi.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon she‘riyati. Falsafiy qarashlari. Davr muhiti. Xazon. Kecha va kunduz. Bahorni. Kundalik daftar kabi sherlari. Jadid adabiyoti.

Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon haqida gap borar ekan, uning beqiyos, samarali ijodiga to‘xtalib o‘tishimiz shart. Uning ijod yo‘liga bir nazar tashlasak nasr yo‘lidagi adabiyotimizdagi „Kecha va kunduz“ roman diologiya haqida fikr yuritishimiz tayin. Bu asarni o‘quvchilarga yetkazib berishda obrazlar talqiniga to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Jadid adabiyotchilarni bilamizki, xalqimizni uyg‘otish uchun ko‘p zahmat chekishgan. Cho‘lpon ham bundan holi emas, albatta. O‘quvchilarga Cho‘lpon hayoti va ijod yo‘lini tushintirmoqchi bo‘lsak, iloji boricha hozirgi hayotimizga bog‘lab bersak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. U oddiy hunarmand oilasida tug‘ildi. U yoshlikdan adabiyotga mehr qo‘ydi. „Vola“, „Rasvo“, „Andijonlik“ kabi taxallus bn ijod qildi. Uning serqirra ijodkor ekanligi she‘rlar, maqolalar, romanlaridan bizga ma‘lum. Cho‘lpon asarlarida katta falsafa yotadi. Uning tag zamirida olam-olam ma‘no bor. „Xazon“ she‘rini olaylik, shunchaki o‘qib, o‘tib ketishimiz mumkin emas. „Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar, Bilmadim kimlarning qismati uzilir“? Buyuk shoir qarg‘alar deb kimni nazarda tutmoqda? Nega bog‘da bulbul emas, qarg‘a? Shu haqda bir fikr-mulohaza yuritib ko‘rishimiz kerak. Keyingi misraga o‘tsak kimningdir qismati uzildi. Biz Cho‘lpon yashab o‘tgan davrga nazar tashlasak juda tahlikali bir qiyin davr ekanligini guvohi bo‘lamiz. Faqat bu davrda partiya maqtalsa, eng yuksak adabiyot deb ko‘klarga ko‘tarilganligini tarix bot-bot isbotlab turibdi. Bu davr mohiyatini qanchalik ijod qilish qiyin ekanligini o‘quvchilarga tushintirib berishimiz kerak. Lekin Cho‘lpon bunday ijod yo‘lini tanlamadi. Uning „Adabiyot nadur?“, „ulug‘ hindi“ maqolasi, „xazon“, „somon parcha“, „bahorni sog‘indim“, „kuz yomg‘iri“ kabi she‘rlari, „qor qo‘ynida lola“ qissasi va „kecha va kunduz“ romanlari bu fikrimning isboti bo‘la oladi. Cho‘lpon va boshqa jadidchi yozuvchilarning ham

maqsadi bitta edi. Yangi o'zbek adabiyotini yaratish masalasi edi. Cho'lponning nazarida bu vazifani muvaffiqiyatli hal qilish uchun sharq va g'arb san'atlarini sintez qilmoq va mazmun bilan shaklning uyg'unligiga erishmoq kerak, zinhor-bazinhor san'atni quruq g'oyalar majmuasiga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslik zarur., Odam tanasiga suv va havo qanchalik zarur bo'lsa, adabiyot xalq va millat ruhi uchun shunchalik zarur. Adabiyot yashasa, millat yashaydi" kabi fikrlar muallifi Cho'lpon edi., „Kirmayman ko'chaning boshi berikiga, chunki taslim bo'ldim muhit erkiga" yuqorida takidlab o'tkanimizdek o'sha davrdagi muhit buyuk ijodkorni bo'g'ib qo'ygan bo'lsa, ajabmas. Taniqli shoirimiz MYusuf aytganidek „kimki adabiyotni o'qimoqchi bo'lsa, Cho'lpon va Qodiriy bobolar asarlarini bilmay turib, anglamay turib, qo'lga olmasin" deya ta'kidlaganida juda katta haqiqat bor edi. Cho'lpon ijodini millatni hurlikka chorlagan, erklikka chorlagan shoir desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. "Topshirdim o'zimni muhit erkiga,

Muhit girdobida bir somon parcha."

Shoir bu misrasida o'zini somon parchaga qiyos etmoqda. Oddiylikda hikmat katta deydi -, xalqimiz. Chunki Cho'lpon o'zini somon parchaga o'xshatishida ham falsafa, tag mano bor. O'zi istagan muhitni yaratishni xohlaydi, lekin yarata olmadi. Ya'ni bir vznsiz holatga kelib qoldim deydi. Cho'lponning asl maqsadi yoshlarni ilmga chanqoq qilib tarbiyalash, xalqni marifatli qilib uyg'otish, o'zbek xalqini o'zligini anglatishga harakat qildi.

Mana shu jadid adabiyotshunoslarining asl maqsadi edi. Hozirgi maktab o'quvchi yoshlarimizga yetkazib bera olishimiz kerak, tushintirib o'tishimiz darkor. Chunki hozirgi yaratilayotgan shart-sharoitlarni, avvalgi davrlarga qiyoslagan holda bu berilayotgan imkoniyatlarni qadriga yetish kerakligini o'quvchilarga tushintirib berishimiz kerak. Bu darslarni qiziqarli qilib o'tkizishimiz uchun har xil metodlardan foydalansak bo'ladi. Misol uchun, „soat strelkasi" metodidan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir o'quvchi Cho'lpon hayoti va ijodi haqida soat strelkasi bo'ylab malumot aytib o'tadi. Agarda malumot aytmagan o'quvchi o'yinda chetlatiladi. Ohirida qolgan o'quvchi g'olib deb topilib rag'batlantiriladi.

„Muhit kuchlik ekan, egdim bo'ynimni
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.
Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi
Oqishning yo'liga soldim kuyimni."

Albatta, jadid adabiyotchilarining harakatlar beiz ketmagan. Muhit kuchli ekan, bo'ynimni egdim deydi. Faqtgina bo'ynimni lekin jisman va qalban shoir taslim bo'lmagan. O'zining chaqmoqdek asarlari bilan xalq dardini kuylashdan charchamasdi. Bu albatta rus tuzemiga yoqmasligi tayin bir holat edi.

„G'amgin - g'amgin so'la boshladi, sarg'aygan yaproq
Bo'yanib tuproq o'la boshladi, o'la boshladi .

Odamlarning orzu - niyatlari yolgʻon xayollarga aylanganligini xazonga aylanganligini „Kundalik daftardan” sheʼriy turkumida Choʻlpon aytib oʻtdi. Keyingi misramizda xuddi yaproqlar singari hatto tuproq ham oʻla boshladi, oʻla boshladi .Oʻzbek xalqining mana shunday buyuk tarixga ega xalq ekanligini oʻquvchilarga aytib oʻtishimiz kerak. Bizda ona tuproq, ona vatan kabi tushunchalar borligini ham qayd etib ketishimiz zarur. Kim qalami bilan, kimdir qilichi bilan ozodlik , hurlik uchun kurashdi. Choʻlpon „bahorni sogʻindim” sheʼrida aytib oʻtganidek ,

„Yoʻq.... oʻlim yoʻqdir !

Yolgʻiz bir oʻchib bir yonish bordir.

Bir oʻchib, soʻnib yana yonish bor .

Yana bahorlar,

Yana lolalar

Yana siz , ey ... erkin tilaklar.” Bu misralardan koʻrinib turibdiki , hattoki tilaklar ham malum bir qolibga solingan , kishanlangan holatda ekanligini bilish qiyin emas. Taniqli oʻzbek shoiri Gʻ.Gʻulom aytganidek „ shoirlar buyuk bashoratchi boʻladi” degan fikri oʻz tasdigʻini topgandek „bir oʻchib , bir soʻnib, yana yonish bor ” deb takidlaganida ham bizning hozirgi yorugʻ kelajagimiz tinch , osoyishta kunlarimiz haqida bashorat qilib oʻtgandek goʻyo. Shoʻrolar davrini qanday chirkin bir davr boʻlganligini bizga tarixdan maʼlum. Birinchi prezidentimiz taʼkidlaganidek „ Ibrat , U. Nosir , Qodiriy , Choʻlpon kabi yuzlab marifatparvar , fidoiy insonlarning oʻz shaxsiy manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo oʻchmaydi .” Biz doimo mana shundek bobolarimiz borligidan faxrlanib yashashimiz darkor. Yosh avlodni tarbiyalashda jadid adabiyotchilarining yuksak gʻoyalarni toʻgʻri talqin qila bilishimiz muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Islom Karimov. „ Yuksak maʼnaviyat , yengilmas kuch ” Toshkent. Sharq nashriyoti . 2008.
2. Islomjon Yoqubov.,„Mustaqillik davri oʻzbek romanlari poetikasi” Toshkent.,„Nurafshon business”2021.
3. B.Toʻxliyev. B.Karimov. „10-sinf adabiyot Toshkent. „Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent.2017.
4. D. Qurinov . „Adabiyot nazariyasi ” Toshkent . 2001. Oʻqituvchi.
5. O . Sharafiddinov. „ Ijodni anglash baxti” . 1998. Toshkent. Sharq nashriyot matbaa ijodiy uyi.
6. S. Ahmedov. R. Qoʻchqorov. Sh. Rizayev. „ adabiyot 6- sinf darslik” Maʼnaviyat. Toshkent. 2013.